

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO'YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: Xorazm viloyati Xiva shahrida yangi jamoat markazi va 75 o`rinli mexmonxona binosi .

Bitiruvchi: 213-QXALTE guruhi talabasi:

Matkarimov M.M

Kafedra mudiri:

dots. Raxmonov B.S

Diplom loyihasi rahbari:

Abdullayeva SH.

Maslahatchilar:

1. Arxitektura qismi

o'qit . Abdullayeva SH.

2.Konstruktiv qismi

dots. Raxmonov B.S

**3.Qurilish texnologiyasini
tashkil qilish qismi**

o'qit. Nafasov R.

4. Iqtisodiyot qismi

o'qit. Tojiev Yu.

**5.Mehnat va atrof muxit
muhofazasi qismi**

dots. Quryozov Q.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQ

Matkarimov Murod Maqsudovich

(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

Diplom loyahasining mavzusi: Xorazm viloyati Xiva shaxrida yangi jamoat markazi va 75 o`rinli mexmonxona binosi .

UrDU bo`yicha 2013 yil «_____» _____ dagi _____ - son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyahasini bajarish uchun ma'lumotlar: Binoni joylashtirish bo'yicha xolat tarxi M- 1:1000, 1 :2000,

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (70-80 varaq A- 4 formatda qo`lyozma tarzida yoki 40-50 varaq kompyuterda yozilgan matnlar):

a) Arxitektura qismi bo'yicha: Xolat tarxi, bosh reja, binoning arxitekturaviy-rejalashtirish echimi, arxitekturaviy kompozitsiya, xulosa.

b) Konstruktiv qism bo'yicha: Binoning konstruktiv uzeli (ayrim olingan bir qismi), devorlar, tom yopma qismi, poydevor qismi, zinapoya, balka, ustun, rigel va xakozalar(xajmi maslaxatchi tomonidan belgilanadi) xisoblanadi va loyihalanadi.

v) Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi bo'yicha: Mexnatni muxofaza qilish bo'yicha topshiriq diplom loyihasiida loyihalanayotgan ob'ektning joylashgan o'rniga, ishlab – chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik xolatiga yondoshgan xolda beriladi. Bu bo'limni bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muximdir:

Mexnatni muxofaza qilish bo'yicha texnik echimlar loyiha xujjatlarida to'g'ri xal qilinishiga va loyihada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilinganl va ishlab chiqarish jarayonida mexnatni muxofaza qilishning:

a) mexnatni muxofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mexnat sharoitini yaratishga;

v) ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga:

s) xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

d) ishlab – chiqarishda yon'ginga qarshi kurash chora tadbirlariga keng e'tibor qaratish va yong'in paytida odamlarni evakuatsiya qilish masalalarini xal qilish lozimdir.

g) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha: Loyihalanayotgan ob'ektning qurilish-montaj ishlarini tashkil qilish va qurilish ishlarini bajarish texnologiyasini uz ichiga oladi. Qurilish-montaj ishlarining nomlari, ish xajmi, mexnat xarajatlari, mashina vaqti sarfi, qurilish-montaj ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, ishlarni bajarish ketma-ketligi asosida kalendar reja ishlab chiqishdan iborat.

d) Iqtisodiyot qismi: *Ob'ektning qurilish uchun zarur bo'lgan:*

a) ish xaqi xarajatlari;

v) mashina - mexanizmlar xarajatlari;

s) asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalariga qilinganl xarajatlarni;

d) uskuna va jixozlarga qilingan xarajatlarni xisoblab, ob'ektning umumiy smeta baxosini va qurilish – montaj ishlari baxosini aniqlashdan iboratdir. Buning natijasida qurilish uchun sarflangan mablagning iqtisodiy samaradorligini xisoblash maksadga muvofikdir. Yukoridagi ishlarni «Uzdavarxitek Qurilish» tomonidan ishlab chiqilgan va 2005 yildan ishlab chiqarishga joriy qilingan «Qurqiymatasos» - 2005 kompyuter dasturi yordamida bajarish xam mumkin.

e) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati: Adabiyotlar ro'yxati – o'rganilgan chizmalar, tasvirlar, adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar, ilmiy maqolalar, boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar To'la taxlil qilinadi. Ulardan olingan ma'lumotlarni lo'nda qilib ifodalash zarur. Talaba yozayotganda Internet saydlaridan, o'zi tuzgan manbalar kartotekasidan foydalanadi.

j) Mundarija: Diplom loyiha ishining kema-ketligi ko'rsatiladi unda mumkin qadar ishning bajarilish tartibi aks etishi lozim.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati (80 x 90 sm formatda 4 list doskada yoki maketi bo'lishi kerak):

a) Arxitektura chizmalari: Xolat tarxi, shamol guli, bosh reja, binoning qavatlar tarxi, binoning asosiy tarzi, yon tarzi, umumiy ko'rinishi (perespektiva), xona inter'eri, qirqimi va qaydnomada xonaning xajmi kv.m. aks etgan bo'lishi kerak.

b) Konstruksiya chizmasi: Vatmanqog'ozda konstruksiya qismi (maslaxatchi tomonidan berilgan topshiriq asosida) loyihalanadi

v) **Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha:** binoning qurilib bitkazilish muddati belgilanadi.

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

| № | Diplom loyihasining qismlari | Boshlanish muddati | Tugallanish muddati | Imzo | Maslahatchining familiyasi I.Sh. |
|---|---|--------------------|---------------------|------|----------------------------------|
| 1 | Arxitektura qismi | | | | Abdullayeva SH. |
| 2 | Konstruktiv qismi | | | | dots. Raxmonov B. |
| 3 | Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi | | | | o'qit. Quryozov Q. |
| 4 | Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi | | | | o'qit. Nafasov R. |
| 5 | Iqtisodiyot qismi | | | | o'qit. Tojiev Yu. |

Izoh: * - Diplom loyihasi rahbarining taklifiga binoan, mutaxassis chiqaruvchi kafedra loyihaga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt limiti hisobidan loyihaning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

6. Topshiriq berilgan sana _____

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi _____

Diplom loyihasi rahbari _____ (imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi _____ (imzo)

Kafedra mudiri _____ (imzo)

MUNDARIJA

| | | |
|--|-------|-----|
| 1. KIRISH. | _____ | BET |
| 2. ARXITEKTURA QISMI | _____ | BET |
| 3. KONSTRUKTSIYA QISMI | _____ | BET |
| 4. QURILISH TEXNOLOGIYASINI TASHKIL ETISH QISMI | _____ | BET |
| 5. IQTISODIYOTI QISMI | _____ | BET |
| 6. MEXNAT VA ATROF MUXIT MUHOFAZASI QISMI | _____ | BET |
| 7. XULOSA | _____ | BET |
| 8. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | _____ | BET |

**5341000 «QHALTE» yo`nalishining 2017-2018 o`quv yili uchun diplom loyahasini bajarish
bo`yicha kalendar rejasi**

| № | Bitiruv malakaviy ishni bajarish bosqichlari | Bajarilish muddatlari | Eslatma |
|-----|---|-------------------------------|--|
| 1. | Bitiruv malakaviy ishiga qo`yiladigan funksional talablar bilan tanishish. | 2.09.17 y. | |
| 2. | Qurilish xududining geologik, gidrogeologik, seysmik va klimatik sharoiti bilan tanishish va tahlil qilish. | 7.11.17 y. | |
| 3. | Bitiruv malakaviy ishi (B.M.I.)ga doir materiallar yig`ish, loyiha tarkibini o`rganish. | 11.11.17 y. | |
| 4. | Belgilangan mavzu bo`yicha loyiha eskiz ideyasi variantlarini o`rganish. | 18.11.17 y. | |
| 5. | Loyiha ishchi eskizini ishlash. | 25.11.17 y. | |
| 6. | Loyiha ishchi eskizini detallashtirish va gabaritlarini aniqlash, masshtabga tushirish. | 28.11.17y. | |
| 7. | Proektsiyalarni planshetga joylashtirish. | 2.12.17 y. | |
| 8. | Loyihani grafik rang berib ishni yakunlash. Yoki (AvtoCAD, 3D MAX) programmasida ishlash va yakunlash. | 9.01.18 y . | Ximoya paytida ko`rsatilgan kamchiliklar diplom loyixasi do`skalariga joylashtirib chiziladi. Topshirilgan kurs loyixasi asosida quyida berilgan qismlar tayyorlanadi. |
| 9. | Loyiha amaliyoti. Loyiha amaliyoti payti kunning ikkinchi yarmida talaba BMI ning qismlarini tayyorlab, belgilangan diplom rahbariga hisobot berib boradi. Rahbar shu asosida unga reyting % qo`yib himoyaga tayyorligini kafedra mudiriga hisobot berib boradi va himoya qilish navbatini belgilaydi | 14.01.18 dan 8.02.18 gacha | Loyiha amaliyoti ikki hafta bo`lib tugashiga uch kun qolganida BMI da belgilangan mavzu referat qismida qaerga mo`ljallanganligi xolat tarxida aks etgan bo`lishi shart. |
| 10. | <i>Arxitektura qismini tayyorlash</i> | 20.01.18 y. | Ilovada bayon qilingan |
| 11. | <i>Qurilishni tashkil etish va texnologiyasi qismini tayyorlash</i> | 3.01.18 y. | Tegishli mavzular uchun |
| 12. | <i>Muxandislik jixozlari qismi</i> | 5.01.18y. | Tegishli mavzular uchun |
| 13. | <i>Transport qismini tayyorlash</i> | 6.01.18 y. | Tegishli mavzular uchun |
| 14. | <i>Iqtisodiyot qismini tayyorlash</i> | 8.01.18 y. | Barcha mavzularga tegishli |
| 15. | <i>Texnika xavfsizligi qismini tayyorlash</i> | 10.01.18 y. | Tegishli mavzular uchun |

| | | | |
|-----|---|--------------------|--|
| 16. | «O`zbekiston tarixi» fani bo`yicha umumlashtirilgan ma`ruzalarda qatnashish va ushbu fan bo`yicha davlat imtixonini topshirish. | 12.01.18 y | O`quv bo`limi tomonidan belgilangan |
| 17. | Bitiruv malakaviy ishini tayyor xolatga keltirish va tugatish. | 13.01.18y. | Diplom loyixa 100% tayyor bo`lishi kerak |
| 18. | B.M.I.ni tugatish taqriz va diplom oldi himoyasi. | 25-27. 01.18 y. | Xar bir talabaga berkitilgan taqrizchi tomonidan bo`lishi shart |
| 19. | Diplom oldi himoyasidagi kamchiliklarni to`g`irlash va kafedra mudiridan himoyaga ruxsat olish . | .02.18 y. | BMI ning tushuntirish xati to`liq xolatda yozilib arxitektura qismidagi loyihalar 4 ta doskada yoki mashtabli foto-surati taqrizchiga tagdim etilishi lozim. |
| 20. | B.M.I.ni himoya qilish. | .02.18. y. | Himoyaga kirishdan oldin BMI ning tushuntirish xatining har bir qismidagi rahbar va talabaning imzolari qo`yilgan bo`lishi shart |

Talaba _____

Mas`ul rahbar _____

Kirish

Kirish

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi va milliy tarakkiyot yo'liga dadil qadamlar bilan kirib borishi shaxarsozlikda xalq me'morlik merosidan o'rnak olib, maxalliy sharoitlarga moslik, ko'rkam va shinamlilik, jaxon andozalaridan qolishmaslik kabi qator jixatlar e'tibor markazida bo'lishini takozo etadi.

O'zbekiston, mutloq o'ziga xos demografik xolatga ega bo'lgan respublika xisoblangan xolda axoli joylashtirishining juda muxim regional xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu erda axoli sonining oshishi, sanoatning va transport soxalarning rivojlanishi xam shaxarlarning o'sishi va rivojlanishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prizidenti I.Karimov tomonidan tariximizning yuksakligi va uni kelgusi avlodlarga o'z xolicha yetkazish borasida shunday so'zlar bizga g'urur bag'ishlaydi: Biz jaxon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz Ko'x va Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi.

Bog'-rog'larni barpo etish borasida istiqlol me'morchiligida bir nazar tashlab, o'tgan yillar davrida amalga oshirilgan ishlarning ko'lamini axamiyati va moxiyatini, me'morchilik soxasida erishilgan asrlarga teng bunyodkorlik yillari bajarilganligini, respublikamiz shaxar va tumanlarning bugungi qiyofasi tubdan o'zgarib, go'zallashib borganligi borasidagi qilingan ishlarni quyida bayon qilsak.

Barchamizga ayonki "O'zbekiston Respublika shaxarsozlik kodeksi loyixasi" O'zbekiston Respublikasi Prizdentining farmoniga (2000-yil 2-iyun 2612 sonli)muvoqqiq ishlab chiqilgan.

Shaxarsozlik kodeksi loyixasini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi shaxarsozlik soxasini xalqaro darajaga ko'tarish, shuningdek, axoli punktlarini rejalashtirish va qurishga, respublika hududlarini rejalashtirishga nisbatan shaxarsozlik talablarining asosiy qoidalarini qonuniy ravishda mustahkamlash zaruratidan kelib chiqqan. Shaxarsozlikning o'ziga qamragan tomomlaridan biri bu

bog'-rog', landshaft me'morchiligidir. Bog'-rog' me'morchiligi to'g'risida Respublikamizda misli ko'rilmagan darajada obodonlashtirish ishlari amalgam oshirildi.

Andijon shaxri markazida joylashgan A.Navoiy nomli dam olish va istroxtat bog'i to'liq qayta ta'mirlanib, kirish qismi zamonaviy va milliy uslubda qurildi. Shaxarning "Bog'ishamol" daxasida bobokalonimiz Z.M.Bobur xotirasini abadiylashtirish uchun "Bog'i Bobur" oromgohi-ziyoratgoxi bunyod etildi. Daraxtlar ekilib ko'kalamzorlashtirildi, dam olish va ovqatlanish uchun oshxona va choyxonalar qurildi.

Namangan shaxri markazida salobatli viloyat va shaxar xokimliklari yonida pastkam ko'rimsiz binolar o'rnida bunyod etilgan. Bobur xiyoboni go'zal maskanlardan biriga aylandi. Bugungi kunda Bobur Mirzo xaykali va uning atrofidagi yilning barcha faslida ham birdek yashnab turgan maysalar kishining baxru dilini ochadi, kayfiyatini ko'taradi. Xiyobon xududi kunduzi o'zgacha qiyofada, tunda esa favvoralar yog'dusi bilan uyg'unlashib, ajoyib bir manzara kashf etadi.

Namanganda Mashrab va Andijonda Bobur bog'larining Buxoro viloyatida Naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Baxouddin Naqshband me'moriy majmuining ta'mirlanib, katta obodonchilik ishlari bajarilganligi ulkan voqea bo'ldi.

O'zbekiston qayta qurilayotgan qadimiy shaxarlar taraqqiyotining Toshkent shaxri misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Toshkent shaxrini qayta qurish bosh rejasi "Eski shaxar" bilan "Yangi shaxar" o'rtasidagi farqini yo'qotib, Toshkentni bir bir butun shaharga aylanib turushiga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir. Birinchi darajadagi amaliy ishlar qatoriga "Eski shaxar" bilan "Yangi shahar"ni o'zaro bog'lovchi tor arava yuruvchi Navoiy ko'chasini 66 metrgacha kengaytirilishi va bu ko'cha bo'ylab uzunligi 3-4 qavatli turar joylar, kinoteatr

,mamuriy binolar qurilishi ,xiyobon bunyod etib ,A.Navoiy xaykali o'rnatilishi aytib o'tish joiz.

Toshkentdagi A.Navoiy nomli milliy bog' qatorida respublikamiz bo'ylab juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi Farg'ona va Quvada ulug' munajjil qomusiy omil al-Farg'oniy 1200yillik yubleyi munosabati bilan barpo qilingan keng turisdagi obodonchilik namunalari Farg'oniy oromgoxi ,Quva shaxristonining tiklanishi vatanimiz ko'rkiga ko'rk bo'lib qo'shildi .SHuningdek islom dunyosida alloma imom al-Motrudiy qabri ustida Samarqanda qurilgan yodgorlik majmui butun dunyo tan olgan buyuk ajdodlarimiz ,fikix omili Burxonidin al-Marg'ishomiy tavvaludining 912yilligi munosabati bilan marg'ulon shahrida qad ko'targan yodgorlik majmualari xali qadimiy ananalarimizga asoslangan istiqlol memorchiligimizning betakror obidalarimizga aylanib qolgan

Diyorimiz avaldan yirik madaniyat o'chog'i bo'lgan Binobarin, biz boy tarixiy memoriy va tarixiy merosga egamiz Buxoro, Xiva, Termiz, SHaxrisabiz shaharlarining katta yubley nishollanishi va shu munosabat bilan qisqa muddat ichida amalgam oshirilgan qurilishlar va ajdodlarimiz yodgorliklarini, maqbaralarni tiklash kabi bunyodkorlik ishlari mazmuni va xajmi jixatdan asirlarga teng Jumladan xadisshunos olim, buyuk alloma imom al - Buxoriy tavvaludining 1225 yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati chelak tumaning xartash qishlog'ida ananaviy memoriy ulubda o'ta qisqa sakkiz-oy davomida barpo etilgan Bu majlisda maqbara, masjid, mamuriy bino, kutubxona va oshxona kabi inshootlar juda ko'rkam va qulay joylashgan

Vatanimizning bosh maydoni – Mustaqillik maydonida xalqimizning tarixiy xotirasi va qadirlash saloxiyati yanada mujassamlashtiruvchi aziz maskan bunyod etilgan. Bunday xotira qadirlash maydonlarining viloyat markazlarida xam qurilish nafaqat mamuriy majmualar qolmay balki xalqimiz ruxini yanada xam ko'tarmoqda. Jumladan Yunusobodda barpo etilgan "SHaxidlar xotirasi" majmui xam xalqimiz ruxini ko'taruvchi, istiqlol memorchiligidan o'z o'rnini egallagan obidadir Termiz va Qarshi shaharlari markazlarida o'tkazilib, favvorali suv

xavzalari barpo etilgan atroflari ko'kalamzorlashtirilib dam olish oromgoxlariga aylantirilishi natijasida axolini jazirama yoz issiqlarini ko'tarish engillashtirildi.

Bog' rog' memorligiga xamoxang kichik memoriy shakillarini ilmiy uslubda bunyod etishda Qo'qon shahri memolari katta yutuqlarga erishdilar. Ayniqsa Muqumiy, Furqat, bog'larini shaharning markaziy qayta qurishda landshaft memorligini cheksiz imkoniyatlaridan foydalanilgan. [1]

Diyorimiz Xorazm zaminini ko'plab buyuk voqealari, qutlug' bayramlari va shodiyonalari, yangi-yangi inshootlar qurib bitkazilishi guvoxi bo'lgan zamindir. Ko'xna Xivani 2500yillik yubleyi shodiyonalari munosabati bilan ulug' ajdodlarimiz AL-Xorazimiy, Abu Rayxon Beruniy nomlariga Urganch xalqaro aeraporti yo'lining ikki chekkasiga barpo etilgan muxtasham bin ova xiyobon shahar ko'rkiga – ko'rk qo'shib turibdi.

Urganch shahrini ikkiga ajratib turuvchi shovot qanali atrofi obodonlashtirilib "AVESTO"ning 2700yilga atab barpo etilgan bog'ning uch jihati kishining diqqatini o'ziga jalb etadi bu maydon xududi unga juda yaqin bo'lgan „Jaloladdin Mangguberdi bog'i bilan uyg'unlashib ketgan. [2]

Urganch shahridagi A.Temur nomli markaziy bog'i asosiy kirish qismi qayta tamirlashib, zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan qiyofa kasb etadi. Al-Xorazmiy, Xonqa, Toshovuz kabi markaziy ko'chalar qayta tamirlanib yangi zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldi.

Mexmonhonalarning tasniflanishi (klassifikatsiyasi)

Komfortliligi, sig'imi va texnik jixozlanganligi, shuningdek, taklif etiladigan xizmat ko'rsatish xajmiga qarab O'zbekistonda va xalqaro maydonda mexmonhonalalar 5 qurilish razryadiga bo`linadi.

Razryadni aniqlashdagi asosi mezon kriteriy mexmonhona xonasi bo`lib, uning sifati o`z navbatida xonaning komfortliligi darajasiga bog`lik. Bunda komfortning jixozlanganlik darajasiga, maydoniga, o`rinlar soniga, mebelga,

ta'mirlanish darajasi va boshqalarga ko`ra aniklanadi. Mexmonhona xonalari bir xonali va ko`p xonali (appartamentlar, luks) turlarga bo`linadi.

Xonalarda birdan - to`rtgacha o`rin bo`lishi mumkin, besh va undan ko`p o`ringa ega bo`lgan xonalar umumiy yashash binolari razryadiga kiradi (yotoqxon).

Xonalarning santexnik jixozlanishi turlicha bo`lishi mumkin: to`lik (yuvinish joyi, unitaz, vanna, bide) yoki qisqartirilgan (yuvinish joyi, unitaz, vanna yoki dush). Yanada qisqartirilgan tizim xam mavjud: yuvinish joyi va unitaz yoki bitta yuvinish joyi.

Mexmonhona binolari, motellar va kempinglaridagi xonalar soni, turi, yashash maydoni va santexnik jixozlanishi qurilish razryadi jadvaliga asosan qabul kilinadi.

Oliy razryaddagi mexmonhonaning yashash qismi oliy razryadli xonalardan, bir va ikki o`rinli birinchi va ikkinchi razryadli xonalardan tashkil topadi. Bu mexmonhonada oliy toifadagi restoran, kafe, bar, xonalarda ovqatlanish imkoniyatining ta'minlanishi, to`liq xizmat ko`rsatuvchi xonalar majmuasi bo`lishi kerak. Mehmonlar uchun barcha xonalarni xavoni konditsiyalash va sovutish uskunalari bilan ta'minlash taklif etiladi. Mexmonhonada suzish xavzasi, kinomoslamali konferents-zal va shaxsiy avtomobillar uchun garajlarning bo`lishi maqsadiga muvofik.

Birinchi razryadli mexmonhonaning yashash qismi oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi razryadli xonalardan iborat bo`lib, ularning kamida 80% bir va ikki o`rinli bo`lishi kerak. Mexmonhonada birinchi toifali restoran, kafe, bar va to`liq xizmat ko`rsatuvchi xonalar majmuasi faoliyat ko`rsatadi. Shuningdek, kinomoslamali konferents-zal va shaxsiy avtomobillar uchun garajlarning mavjudligi maqsadga muvofiq.

Uchinchi razryadli mexmonhonaning yashash qismi ikkinchi va to`rtinchi razryadli xonalardan tashkil etilib, ulardan va umumiy yashash xonalaridan iborat

(yotoqxona). Mexmonhonada kafe yoki o`z-o`ziga xizmat kiladigan oshxona, bufet, umumiy vannaxona yoki dushlar bo`limi zarur.

To`rtinchi razryadli mexmonhonalarning yashash qismi uchinchi va to`rtinchi razryadli xamda umumiy yashash xonalaridan iborat bo`ladi. Bir va ikkinchi o`rinli xonalarning soni cheklanmaydi.

Mexmonhonalar funtsiyasiga ko`ra qisqa vaqt yashash dam olish xordiq chiqarish uylaridir.

Mexmonhonalar binosi, turar joy va jamoat-binolarini o`zida mujassamlashtirgan yaxlit bir majmuadir.

Asosiy vazifasi odamlarni vaqtincha turar joy bilan tamirlab, vaqtincha ish yuzasidan kelganlarga, sayyoxlarga, ta`tilda dam oluvchilar va kelib ketuvchilar uchun vaqtincha yashab turish uchun xizmat kiladi.

Mexmonhonalarning asosiy klassifikatsiyasi shuni taqozo etadiki, sig`im darajasi, qavatlilik va qulayligidir.

Umumiy turdagi mexmonhonalar har taraflama vazifalarni bajarib, ular asosan xizmat bo`yicha ish yuzasidan kelganlarga, oliy majlis anjuman katnashchilari, konferentsiya katnashchilari va boshqa keluvchilarga mo`ljallanadi.

Bunday mexmonhonalar asosan shahar markazlarida, transport qulay bo`lgan joylarda quriladi. Tuman va qishloq mexmonhonalari uncha katta bo`lmaganligi tufayli umumiy xizmat ko`rsatish xonalarining eng asosiylari aloka, ovqatlanish va boshqalar xisobga olinishi kerak.

Mexmonhonalarning klassifikatsiyasi.

Mexmonhonalar 3 turga bo`linadi:

- Kichik turdagi 100 o`rinli:
- O`rta turdagi 500 o`ringacha:

- Katta turdagi 500 o`rindan ortik.

Sig`im darajasiga qarab mexmonhona qavatlarini 1 qavatdan 50 qavatgacha qilish mumkin. Mexmonhonalarning sinfi turar joy sinfi bilan o`xshashdir. Ulardagi qavatlar soni kam qavat 1-2 qavatdan, o`rta qavatli 3-5 qavatdan, yuqori qavatdan- 6-9 qavatli, ko`p qavatli – 10-40 qavatli, va osmon o`par -40 qavatdan yuqori. Qavatlariga bo`lgan talab arxitekturaviy kompozitsion echim va shaharsozlikni rejalashtirishdan kelib chiqadi.

| Mexmonhona turi | Toifasi |
|---------------------------------------|-------------|
| Umumiy turdagi yoki turizm yo`nalishi | Oliy, I-IV |
| Qurortlar uchun | Oliy, I-III |
| Motel | I-III |
| Kemping | IV |

Mexmonhona toifasiga uning turar joyiga va jamoat qismiga ta`sir ko`rsatadi ya`ni razryadi qancha yuqori bo`lsa yashash joyi o`lchami katta, muxandislik jixozlari qulay va qimmat narxda. Mexmonhona xonalari luks va apartamentlardan tuzilgan bo`ladi. Toifasiga ko`ra umumiy xizmat ko`rsatish xonalarining o`lchami o`zgaradi. Masalan: xizmat ko`rsatish shaxobchalari oliy, I va II- toifali mexmonhonalarda 1,2-1,5 marotaba ko`p bo`ladi, III va IV- toifali mexmonhonalarda ikki marotaba kam bo`ladi.

Mexmonhonalarning tipologik echimlari.

Mexmonhona binosining asosiy xajmiy turiga o`rta va katta sig`imli mexmonhonalarning kiradi. Qavatlararo aloqani yaxshi yo`lga ko`yish uchun funksional bog`liklikka e`tibor qilish lozim. Bu tur guruxlariga yashash guruxi, vestibul, umumiy ovqatlanish, madaniy xordiq, sog`lomlashtirish, boshqaruv organi, xo`jalik va texnik boshqarish (vent kamera va boshqa.)

O`rta va katta sig`imli mexmonhona binosida bir qancha kirish joyi qo`yiladi: asosiy kirish, ovqatlanish shaxobchalariga kirish, xizmatchilar uchun kirish va sport va sog`lomlashtirish shaxobchalariga kirish bilan chegaralanadi.

Yashash joyi bilan jamoat bo`limlarini bir-biri bilan uzviy bog`lash quyidagi tizim asosida rejalashtiriladi: bir binoni o`zida joylashtirish yoki jamoat bo`limini aloxida blokda rejalashtiriladi: bir binoni o`zida joylashtirish yoki jamoat bo`limini aloxida blokda rejalashtirish. Yashash nomeri bilan jamoat qismini birlashtirish orqali qurilish maydoni satxini iktisod qilish mumkin, lekin binoning jamoat xizmati qismini va muxandislik tarmoklarini rejalashtirishda kiyin tamonlari yuzaga keladi. Ya`ni yashash nomerlari va jamoat bo`limlari oralig`ida taxnik qavat ko`yish talab etiladi. Yashash nomerlari mexmonhona binosi xajmini maksimal qismini egallaydi. O`rta va katta mexmonhonalarda funktsional tizim rejasi yong`indan saqlashda va lift, zinapoyalarni joylashtirishda me`yoriy qoidalarga amal kilgan xolda joylashtiriladi.

Mexmonhona binosi “lift” bilan ta`minlanishi kerak: yuqori darajadagi mexmonhonalarda “lift” uskunasi inshoot bo`yi barobarida o`rnatiladi. Mexmonhonalarda odamlar sonidan kelib chikib ikkitadan kam bo`lmagan lift ishlatiladi. Liftni xollda rejalashtiriladi. Katta o`lchamli mexmonhonalarda bir qancha lift guruxi loyihalanadi.

Yashash nomerlari kompozitsion tizimi rejasi yo`laksimon, galereyasimon, minorasimon, atriumli, ikki yo`lakli va boshqa xil tuzilishlarda loyihalanadi.

“Yo`laksimon” tuzilishidagi bino tarxi ko`p uchraydi. Yo`laksimon shaklida xizmat qilish va muxandislik tizimi xonalari bo`ylama xolatda rejalashtiriladi. Yo`laksimon mexmonhona turlarining uzunligiga 10-50 ta yashash nomeri qo`yish mumkin.

Bu turdagi mexmonhona ancha qulayliklarga ega bo`lib, yorug`lik bilan ta`minlash, lift, yong`indan saqlash zinapoyasi va shu bilan birga yordamchi xona,

xizmatchilar xonasiga yo`lak orqali bog`lanlaniladi. Natijada xizmat ko`rsatish radiusi qisqaradi, tarx echimining qulayliligi oshib, binoni eni kengayadi.

- “Galereyasimon”.
- “Minorasimon”.
- “Burchak”.
- “Atrium”. Mexmonhonalar kvadrat va aylanasimon shaklda loyihalaniishi mumkin.

Galereyasimon mexmonhonalar bir chizikli nomerlardan tashkil topadi: galereyasimon mexmonhonalarni salbiy tomoni shundaki binoni eni kichik xajmli, devorlarini kalnligi va muxandislik kommunikatsiyalarni joylashtirishda kiyinchilik tug`diradi.

Minorasimon mexmonhona loyihasi ko`p qavatli, baland minorasimon kilib rejalashtiriladi. bu turdagi mexmonhona to`rtburchaksimon, to`g`ri burchakli va aylanasimon, oval, uchburchaksimon shaklda rejalashtiriladi. Bu turdagi mexmonhona rejasining harakterli jixati shundaki loyihalash jarayonida markaziy kismda “orolcha” tizimini ko`llash qulaylik beradi ya`ni “orolchada” lift, yuk tashuvchi lift, xoll, aylanasimon yo`lak bilan qavatlardagi harakatni bog`lash mumkin.

Burchak turida ko`p qavatli mexmonhonada nomerlar sonini oshirish mumkin. Bu turdagi mexmonhona rejasida shu narsa bo`ylama kommunikatsiyani markazda joylashtirish imkoniga ega bo`lib: yo`laksimon, galereyasimon, simmetrik, assimetrik shakllarda joylashtirish mumkin.

Atrium turida aylana atrofiga yashash nomerlari rejalashtiriladi: bunga ochiq va yopik ayvonlar kiradi. Ochiq atrium tizimi bizga oldindan ma`lum bo`lsa yopik atrium turi yangi yo`nalishdir. Bu turni Amerikalik arxitektor Portmonan tomonidan yaratilgan va qisqa muddat ichida butun dunyoga tarkalib kurila boshlagan.

Mexmonhona binosi piramidasimon, tsilindrsimon yoki parallelopiped ko`rinishiga egadir. Yashash nomerlari xududlarga bo`lingan bo`lib, kishki bog`, dam olish burchagi va boshqalardan tashkil topgan.

Yopik atrium turi: turar joy va jamoat binolari bilan uzviy bog`liklik, kompozitsion yaxlitlik bilan birga ichki inter`erni uyg`unlashtiradi.

Ochiq atrium turi da yashash joyi galereyasimon, yo`laksimon tizimdan iborat bo`lishi mumkin.

Mexmonhonalari o`z xususiyatiga qarab bir nechta turga bo`linadi: tranzit va umumiy sayyoxlar uchun. Tranzit xildagi mexmonhonalarni asosiy vazifasi bu aeroport, temir yo`l, avtovakzal yo`lidagi vaqtincha to`xtab o`tadigan joylar tashkil qilishni taqozo etadi. Shuning uchun bunday mexmonhonalari aeroport, temir yo`l atroflariga joylashgan bo`ladi. Sayyoxlar mexmonhonasini asosan turizm byurosi, transport, aloka, sayyoxlar marshruti bilan ta`minlanib turishi kerak, u erda albatta foto va sovg`a sotish shaxobchalari bilan ta`minlangan bo`lishi kerak. Sayyoxlar mexmonhonasini shaharda asosan tarixiy yodgorliklarga boy bo`lgan yoki zamonaviy xaykallar tarixiy yoki xalq madaniy boyligi muzeyi, ko`rgazma zallari, go`zal tabiat manzaralari atrofida quriladi.

Umumiy mexmonhonalari har taraflama vazifalarni bajarib, ular asosan xizmat bo`yicha ish yuzasidan kelganlarga, oliy majlis anjuman katnashchilari, konferentsiya katnashchilari va boshqa keluvchilarga mo`ljallanadi. Shundan ko`rinib turibdiki bunday mexmonhonalari asosan shahar markazlarida, transport qulay bo`lgan joylarda quriladi. Tuman va qishloq mexmonhonalari uncha katta bo`lmaganligi tufayli umumiy xizmat ko`rsatish xonalarining eng asosiylari aloka, ovqatlanish va boshqalar xisobga olinishi kerak. Mexmonhonalari o`rinlarining soniga qarab kichik, o`rta va katta mexmonhonalarga bo`linadi. Urdan tashkari ular qulaylik darajasiga qarab guruxlarga bo`linadilar, to`rt va besh yulduzli mexmonhonalari barcha zamonaviy qulayliklarga ega bo`lib katta-katta majmualarni tashkil etadi. Umumiy mexmonhonalari ularga nisbatan kamrok

qulayliklarga ega bo`ladi. Lekin o`rta va kichik mexmonhonalarda xam eng kerakli qulayliklar yaratiladi. Qavatiga qarab mexmonhonalar past qavatli 1-2 qavat, o`rta qavatli 4 qavat va ko`p qavatli 4 qavatdan yuqorilariga bo`linadi. To`rt qavatdan yuqori mexmonhonalarga lift o`rnatilgan bo`ladi. Mexmonhona xonalari xuddi yotoqxonalaridagi xonalar guruxiga o`xshab turar joy, yordamchi va umumiy xizmat ko`rsatish xonalariga bo`linadi.

Arxitektura qismi

Bitiruvchi:

Maslaxatchi:

Mas'ul raxbar:

Arxitektura

Dam olish maskanlarida mexmonxonalar aloxida o'rinni egallaydi. Mexmonhona binolari odamlarning qisqa vaqt davomida yashashlari va shunga maishiy, madaniy talab asosida xizmat ko'rsatish maqsadlarida quriladi. Bunday inshootlar barcha turdagi zaruriy kommunal qulayliklar (suv, qanalizatsiya, isitish qurilmalari va xakozo) bilan jixozlangan va zamonaviy QMQga asoslangan xizmat ko'rsatish kompleksi bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Mexmonhonalalar shaharlarda, ishchilar yashaydigan posyolkalarda va qishloq joylarda quriladi. SHuni inobatga olib Xiva shahri markaziy qismida dam olish maskani mexmonxona binosini va landshaft echimi loyihaladim.

Tanlangan ma'vzuni dolzarbligini ilmiy asoslash:

Loyixalanayotgan diplom ishi Xiva shahrini markaziy xududining ja'nubiy qismi daryo atrofida dam olish majmuasini loyihalash bo'lib, bugungi kunga kelib mamlakatimizda bunday binolarni qurish yuz berayotgan turizmni rivojlantirish va shu orqali daromad topish kabi ijobiy jarayonlar orasida ahamiyatga egalaridan biridir.

Xiva markaziy qo'cha xududini dam olish maskaniga aylantirish, bu erga dam oluvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida yangi sayyohlik maskanini loyihalashdan iborat.

Loyihaning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish:

Da'm olish binosini loyihalashdan maqsad Xorazmdagi Xiva xududini dam olish maskaniga aylantirish yozning iyul va avgust oylarida aholi dam olishi va tibbiy muolaja olishlari uchun uning ja'nubiy qismidagi daryoda cho'milib uning yon bag'ridan qumga ko'milishadi. Shunday muhit tuzilishini yanada oshirish maqsadida xududning janubiy qismida dam olish majmuasini barpo etish bo'yicha loyihaviy taklif berishdan iborat.

Loyiha ob`yekti va predmetini aniqlash:

Xiva shahri markaz xududini hozirgi kunda shaxarsozlik nazaridan dam olish maskaniga aylantirish, bu erga dam oluvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida ushbu hudud tanlab olindi. SHuni inobatga olib Otchopar xududida dam oluvchilar uchun xamma qulayliklarga ega bo'lgan mexmonxona binosi loyihalandi.

Loyiha usuli yoki uslubiyatini tanlash:

Loyihalanayotgan diplom ish ma`vzusi Xiva shahri markaz xududida dam olish binosini loyihalasi milliy va zamonaviy uslub uyfunligida loyixalandi.

Aholi o`rtasida anketa so`rovnomasini o`tkazish va dam olish majmuasini barpo etish bo`yicha loyihaviy takliflarni ishlab chiqishni o`z ichiga oladi.

Loyihani atroflicha yoritish:

Bino 2 ta qavatdan iborat bo`lib, bino tarxi yarim oy shaklida joylashgan. I-qavat quyidagicha loyixalangan:

1. kirish fayesi
2. ro`yxatga olish xonasi
3. Koferents zal
4. Ma`muriy xonalar
5. Bouling
6. Restoran
7. Issiq tayyorlov tsexi
8. Tayyorlov va tarqatish xonalari
9. San uzal
10. Suvenir do`koni
11. Konserjka xonasi
12. Bir o`rinli xona
13. Ikki kishilik xona

14. Trenajyor zal
15. Razdevalka
16. Basseyn
17. Dush qabul qilish joyi
18. Sauna
19. Xojatxona
20. Avtostoyanka.

I-qavati oshxona- restoran uchun mo'ljallangan. Unda zinadan chiqishda vestibulydan to'g'ri restoranga har ikkala zina tominidan ham kirsalar bo'ladi. Ovqat tayyorlash xonasi, idishlarni saqlash, yuvish xonasi, ishchi-xizmatchilar xonasi, sovitish xonasi, daxliz orqali oshpazlar uchun vannaxonaga va xojatxona loyihalangan.

SHuningdek jismoniy va badan tarbiya uchun, dam olish bo'limining I-qavatida kirish fayesi, ko'p funksiyali sport zal, ayollar kiyinish xonasi, erkaklar kiyinish xonasi, ayollar va erkaklar uchun alohida yuvinish xonalari, ayollar va erkaklar xojatxonalari va zinapoyalari loyihalangan.

1-qavat mehmonhona uchun mo'ljallangan bo'lib unga A va B blokdan o'tish uchun maxsus yo'lak loyihalangan bo'lib A va B blokni bir-biri bilan perpendikulyar bog'laydi. Yo'lakdan A- blok vestibulyda ro'yxatga olish burchagi, bufet, mehmonxona nomerlari: daxliz orqali vanna va xojatxonasi bilan birgalikda loyihalangan.

2-qavat tarxi ham xuddi birinchi qavatdagi kabi bir qancha nomerlarni o'z ichiga oladi:

1 kishilik xonalar soni – 14 ta;

2 kishilik xonalar soni - 8 ta.

Qavatda konserjka xonasi joylashgan. Bu xonalarni uzun koridor o'zaro bog'lab turibdi. II- qavatida A blok zinapoyasi bilan yo'lak orqali B blok o'tish yo'laki

loyihalangan. Yo`lakdan 22 ta mehmonxona nomerlariga kirish loyihalangan. Unda daxlizdan nomerga, vanna va xojatxonaga o`tish re`jalashtirilgan. Zinapoyadan chiqishda mehmonxona blokidan restoranga ham kirish mumkin. Vestibyuldan ishchi xizmatchilar xonasi va choyshab, sochiqlarni saqlash xonasiga kiriladi.

Bino tashqi fasad ko`rinishi jihatidan har ikkala tomoni bir-biriga o`xshash qilib loyihalangan. Asosiy fasad kirish qismi milliy ko`rinish kasb etadi. Bino asosan konstruktiv jihatdan pishiq g`ishtdan qurilgan bo`lib, binoning yadrosida zinapoya joylashgan qismida, yarim shar shaklida burjlar loyihalangan. Asosiy fasad ko`rinishi o`ziga xos zamonavi va milliy uslubni tashkil qilish maqsadida kichik gumbaz bilan yopilgan.

Majmuaning markaziy qismida qishki bog` va fontan loyihalangan. Xovli tomonga qarata loyihalangan derazalar yuqoridan tushgan quyosh nuri orqali yoritiladi. Binonihg qavatlar balandlik 3,30 m qilib olingan. Binoning V va C blokiga kunning birinchi yarmida V blokga ikkinchi yarmida esa C blokga quyosh tushishi orientatsiya qilingan.

Majmua bosh rejada orintatsiya jihatidan to`g`ri joylashtirilgan. Tarixiy obida bo`lishi Qal`ajiq qal`asining janubiy-sharq tomoni va janubiy g`arb tomonida joylashgan dam olish binolari loyihalangan bo`lib oilaviy dam olish uchun qulayliklarga ega.

Binogacha va barcha joylarga borish uchun yo`laklar va yo`llar loyihalangan. Dam olish majmuasiga tashrif buyurgan shahsiy avtomobillar turishi uchun maxsus joylar loyihalangan.

Majmua maydonini, landshaft yechimlarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Ko`l suvi sho`r bo`lsada uning atrofida la`likor-unumdor tuproq mavjud. Bu yerlarda o`sadigan: saksaul, dorong`i, oqbosh, sirqin va boshqa o`simliklar ekilishi nazarda tutilgan. To`g`ri to`rtburchak va aylana shaklida joylashtiriladi.

Mehmonxona ichidagi cho`miluvchilar uchun maxsus kiyinish xonalari va qutqaruv punkti joylashgan.

Loyihalashga qo`yiladigan funksional va baadiy - estetik ta`lablar:

Bo`limlarda yetarlicha yoritilgan bo`lib bino 4 ta yaxlit blokdan tashkil topgan. Bino ikki tomondan oynali qilib asosiy ko`rinish qismi markazdan ikkinchi qavatiga ko`tarilish zinapoyasi bo`lish to`rt burchagida loyihalangan.

Baadiy - estetik ta`lablar binoning arxitekturaviy kompozitsion tuzilishiga, uning atrof-muhit va tabiiy landshaft bilan uyg`unligiga qo`yiladigan ta`lablar bo`lib, bino kompozitsion muhitdan simmetrik qilib loyihalangan. Bino ikki qavatli bo`lib, asosiy ko`rinish qismi markazdan yangicha ko`rinish kasb etib, tashqi tomondan pardozlangan g`isht bilan bezatilgan.

Konstruktiv talablar:

Dam olish majmuasining konstruksiyalari yig`ma temirbetondan, g`ishtdan yoki mahalliy tosh materiallaridan, monolit temirbetondan va po`lat karkazlardan barpo etilishi mumkin. Ayrim hollarda aralash konstruksiyalar kam qo`llaniladi. G`ishtli binolar 30 sm modulli asosida loyihalangani. 2.4 dan 6.3 m gacha va 9 hamda 12 metrli o`lchamlarda bo`lgan ko`p bo`shliqli yopma materiallardan, yig`ilgandek, T va TT qovurg`ali uzunligi 9.2 va 15 metr bo`lgan temir fermalardan yig`iladigan konstruksiyalar dam olish majmuasi binolarida turli rejaviy yechimlar beradi.

Hozirgi davrda dam olish majmuasi qurilishda umumiydashgan karkaz panelli konstruksiyalar keng tatbiq etilmoqda. Amalda seriyalar kalonnalarning kesim yuzalari 30x30 sm va 40x40 sm dan iborat. Dam olish majmuasining muhandislik jixozlari issiqlik ta`minoti, isitish havolantirish, havoni konditsiyalash, suv ta`minoti, kanalizatsiya elektr ta`minoti va aloqa tizimlaridan tashkil topdi. Shuningdek turli muhandislik tizimlari chaqiruv va aniqlash signalizatsiyalari televizion aloqa markazlashtirilgan kislorod va narkoz uchun ta`minoti, ta`tbiq etilishi boshlangan markazlashgan changdan tozalash tizimlari,

hastalik kechishi qayd etiladigan magnit yozuvlar pismo pochtalar ham qo'llanmoqda.

Sanitariya- gigiyena ta'lablari:

Dam olish majmuasi binosida qulay sanitariya- gigiyena sharoyitalari yaratilgan bo'lib, ishchilar va mexmonlar ovqatlanishi uchun xonalar loyihalangan. Dam olish majmuasi va unga tegishli bo'lgan xonalar, xizmat ko'rsatish xonalari yetarli darajada yoritilgan, insolyatsiya va shamollatish imkoniyatlari bilan ta'minlangan. Asosiy xonalar yelvizak qilib shamollatish yo'laklar orqali amalga oshiriladi.

Yong'inga qarshi talablar:

Yong'inga qarshi talablarga amal qilishni va evakuatsiya ta'lablarini bajarilishini dam olish majmuasini loyihalashda asosiy vazifalardan biridir. Yong'inga qarshi talablar ham konstruktiv, ham rejalashtirish yo'li bilan amalga oshirilgan. BU talablar binoning yong'inga chidamlilik darajasiga qarab belgilanadi.

Barcha ko'ndalang kommunikatsiyalar tizimi evakuatsiya yo'llari sxemasini tashkil etadi. Binodan chiqish vaqti oddiy holatlarda 10-15 minutni, favqulotda holatlarda 2-3 minutni tashkil etishi lozim.

Dam olish majmuasini loyihalashda yong'inga qarshi ta'lablarga qat'iy rioya qilinadi.

Binodan evakuatsion chiqish yo'llari 4 ta bo'lib barcha talablarga to'la javob beradi. Jamoat binolarini loyihalashda bir qator iqtisodiy ta'lablarni e'tiborga olish zarur loyihalashda iloji boricha tayyor, yig'ma konstruktiv elementlardan foydalanilgan. Loyiha qurilish me'yorlari va qoidalari (QMN) asosida bajarilgan.

Evakuatsion chiqish yo'llari odamlar soni va oqimini hisobga olgan holda bino bo'ylab teng taqsimlangan. ko'kalamzor qilingan.

Konstruktsiya qismi

Bitiruvchi:

Maslaxatchi:

Mas'ul raxbar:

Zinapoya katagini loyihalash

1. Zinapoya marshini hisoblash

Berilganlar: Beton sinfi B25. Armatura sinfi A-II, sim to'rlar uchun $Bp - I$.

Zinapoya pog'onalarini o'lchamlari 15x30 sm.

Echish:

Beton va armatura tafsiflari:


Beton B25 $R_B = 14,5 \text{ MPa}$ $R_{Bt} = 1,0,5 \text{ MPa}$ $\gamma_{B2} = 0,9$ $R_{B,ser} = 18,5 \text{ MPa}$

$R_{Bt,ser} = 1,6 \text{ MPa}$

$E_B = 27000 \text{ MPa}$

Armatura A-II $R_S = 280 \text{ MPa}$ $R_{SW} = 215 \text{ MPa}$ $Bp - I$ $d = 4 \text{ mm}$

$R_S = 365 \text{ MPa}$ $R_{SW} = 265 \text{ MPa}$



1 – rasm. Zinapoya marshi, a) hisobiy sxema; b) ko'ndalang va keltirilgan ko'ndalang kesimlar.

YUklar va zo'riqishlarni aniqlash.

Zinapoya marshi bir kvadrat metri xususiy og'irligi $g^n = 3,6 \text{ } \kappa H / \mathcal{M}^2$

Vaqtinchalik normativ yuk qiymati $P^n = 3 \text{ } \kappa H / \mathcal{M}^2$

YUk bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti $\gamma_f = 1,2$

Vaqtinchalik yukning uzoq muddatli qismi $P_{ld}^n = 1 \text{ } \kappa H / \mathcal{M}^2$

Zinapoya marshi 1 m uzunligiga to'g'ri keluvchi hisobiy yuk qiymati

$$q = (g^n \gamma_f + P^n \gamma_f) a = (3,6 * 1,1 + 3 * 1,2) * 1,35 = 10,3 \text{ } \kappa H / \mathcal{M}$$

Marsh proleti o'rtasidagi eng katta eguvchi moment

$$M = \frac{ql^2}{8 \cos \alpha} = \frac{10,3 * 3^2}{8 * 0,867} = 13,3 \text{ } \kappa H * \mathcal{M}$$

Tayanchdagi ko'ndalang kuch

$$Q = \frac{ql}{2 \cos \alpha} = \frac{10,3 * 3}{2 * 0,867} = 17,8 \text{ } \kappa H$$

Marsh ko'ndalang kesimi o'lchamlarini belgilash.

Plita qalinligi $h_f' = 30 \text{ } \mathcal{M}\mathcal{M}$, qovurg'alar balandligi $h = 170 \text{ } \mathcal{M}\mathcal{M}$, qovurg'a qalinligi

$$b_r = 80 \text{ } \mathcal{M}\mathcal{M}.$$

Marsh xaqiqiy ko'ndalang kesimini unga ekvivalent bo'lgan tokchasi siqilishga ishlaydigan tavr kesimiga almashtiramiz.

$$b = 2b_r = 2 * 80 = 160 \text{ мм}$$

Tokcha eni $b'_f = 2(l/6) + b = 2 * (300/6) + 16 = 116 \text{ см}$ yoki

$$b'_f = 12h'_f + b = 12 * 3 + 16 = 52 \text{ см}$$

Keyingi hisoblashlar uchun $b'_f = 52 \text{ см}$ ni qoldiramiz.

Bo'ylama armatura ko'ndalang kesimini tanlash

Tavr kesimdagi betaraf o'q holatini aniqlaymiz

$x = h'_f$ $M \leq R_b \gamma_{B2} b'_f h'_f (h_0 - 0,5h'_f)$ shart bajarilsa betaraf o'q tokchadan o'tadi.

$1330000 < 14,5 * 100 * 0,9 * 52 * 3 * (14,5 - 0,5 * 3) = 2640000 \text{ H} \cdot \text{см}$ shart bajarildi, demak betaraf o'q tokchadan o'tadi. Hisobiy kesimda to'g'ri to'rtburchak eni $b'_f = 52 \text{ см}$ bo'ladi.

$$A_0 = \frac{M \gamma_n}{R_B \gamma_{B2} b'_f h_0^2} = \frac{1330000 * 0,95}{14,5 * 100 * 0,9 * 52 * 14,4^2} = 0,089$$

Jadvaldan $A_0 = 0,089$ da $\xi = 0,095$, $\eta = 0,953$ qiymatlarni olamiz.

$$\text{Armatura yuzasi } A_s = \frac{M \gamma_n}{\eta h_0 R_s} = \frac{1330000 * 0,95}{0,953 * 14,5 * 280 * 100} = 3,26 \text{ см}^2$$

Kesimga $2 \otimes 14 \text{ A-II}$, $A_s = 3,08 \text{ см}^2$ armatura qabul qilamiz. Xar bir qovurg'aga bittadan K-1 tekis karkas o'rnatamiz.

Ko'ndalang kuch ta'siriga hisoblash

Eng katta ko'ndalang kuch miqdori $Q_{\max} = 17,8 * 0,95 = 17 \text{ кН}$

Qiya kesim proeksiyasi uzunligini hisoblaymiz.

$$C = \varphi_{B2} (1 + \varphi_f + \varphi_n) R_{Bt} b h_0^2 / Q_B = B_B / Q_B$$

bunda $\varphi_2 = 2$ og'ir betonlar uchun

$$\varphi_f = 2 * 0,75 \frac{(3h'_f)h'_f}{bh_0} = 2 * 0,75 \frac{3 * 3 * 3}{2 * 8 * 14,5} = 0,175 < 0,5 \quad \varphi_n = 0$$

$$B_B = \varphi_{B2} (1 + \varphi_f + \varphi_n) R_{B1} \gamma_{B2} b h_0^2 = 2 * (1 + 0,175) * 1,05 * 0,9 * 16 * 14,5^2 (100) = 7,5 * 10^5 \text{ H / cM}$$

Hisobiy kesimda $Q_B = Q_{SW} = Q / 2$ bo'lishi kerak, shuning uchun

$$C = B_B / (0,5 Q_B) = 7,5 * 10^5 / (0,5 * 17000) = 88,3 > 2h_0 = 29 \text{ cM}$$

Proeksiya uzunligini $C = 29 \text{ cM}$ qabul qilamiz, u holda

$$Q_B = B_B / C = 7,5 * 10^5 / 29 = 25,9 * 10^3 \text{ H}$$

$Q = 25900 \text{ H} = 25,9 \text{ kH} > Q = 17 \text{ kH}$ demak kesimga ko'ndalang armatura konstruktiv ravishda qo'yiladi.

Konstruktiv nuqtai nazardan marsh uzunligining $0,25l$ qismida $\otimes 6 \text{ mm } A-I$ armaturadan $S = 8 \text{ cM}$ qadam bilan qo'yamiz.
 $A_{SW} = 0,283 \text{ cM}^2$ $R_{SW} = 175 \text{ MPa}$. Ikkita K-1 karkas uchun
 $n = 2$ $A_{SW} = 0,566 \text{ cM}^2$

$$\mu_w = 0,566 / (16 * 8) = 0,0044 \quad \alpha = E_s / E_B = 2,1 * 10^5 / 2,7 * 10^4 = 7,75$$

Marsh uzunligi $\frac{1}{2}$ o'rta qismida ko'ndalang sterjenlarni konstruktiv nuqtai nazardan har 20 sm dan joylashtiramiz.

Qiya kesim mustahkamligini tekshiramiz

$$Q \leq 0,3 \varphi_{w1} \varphi_{B1} R_B \gamma_{B2} b h_0$$

$$\text{bu erda } \varphi_{w1} = 1 + 5\alpha\mu_w = 1 + 5 * 7,75 * 0,0044 = 1,17 \quad \varphi_{B1} = 1 - 0,01 * 14,5 * 0,9 = 0,87$$

$Q = 17000 < 0,3 * 1,17 * 0,84 * 14,5 * 0,9 * 16 * 14,5 * 100 = 93000 \text{ H}$ shart bajarildi. Qiya kesim mustahkamligi ta'minlandi.

2. Zinapoya maydonchasini hisoblash

Maydoncha kengligi 1350 mm , qalinligi 60 mm. Vaqtinchalik normativ yuk miqdori 3 kN/m² . YUK bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti $\gamma_f = 1,2$. Beton sinfi V25, armatura sinfi A-II, sim to'rlar Bp-I sinfidan tayyorlanadi.

YUklarni yig'ish:

Plita qalinligi $h_f' = 6$ cm bo'lganda uning xususiy og'irligi

$$g^n = 0,06 * 25000 * 1 * 1 = 1500 \text{ H / m}^2$$

Hisobiy og'irlik $g = 1500 * 1,1 = 1650 \text{ H / m}^2$

Maydoncha qovurg'asi hisobiy og'irligi

$$q = (0,29 * 0,11 + 0,07 * 0,07) * 1 * 25000 * 1,1 = 1000 \text{ H / m}$$

Maydonchanning devorga birikadigan qovurg'asi hisobiy og'irligi

$$q = 0,14 * 0,09 * 1 * 25000 * 1,1 = 350 \text{ H / m}$$

Vaqtinchalik yukning hisobiy qiymati

$$P = 3 * 1,2 = 3,6 \text{ kH / m}^2$$

Maydoncha tokchasini hisoblash

Maydoncha tokchasi ko'ndalang qovurg'alar bo'lmagan holda tokcha tayanchlariga qistirib mahkamlangan balka kabi hisoblanadi. Hisobiy uzunlik qovurg'alar oralig'idagi masofaga teng qilib olinadi.

$$\text{Eguvchi moment qiymati } \overline{M} = M_s = \frac{ql^2}{16} = \frac{5250 * 1,13^2}{16} = 420 \text{ H} \cdot \text{m}$$

bu erda $q = (g + P)b = (1650 + 3600) * 1 = 5250 \text{ H / m}$, $b = 1 \text{ m}$


$b = 100 \text{ cm}$ va $h_0 = h - a = 6 - 2 = 4 \text{ cm}$ da jadval koeffitsientini hisoblaymiz

$$A_0 = \frac{M\gamma_n}{R_B \gamma_{B1} b h_0^2} = \frac{42000 * 0,95}{14,5 * 100 * 0,9 * 100 * 4^2} = 0,0192$$

Jadvaldan $A_0 = 0,0192$ dan $\xi = 0,019$, $\eta = 0,981$ qiymatlarni olamiz.

Armatura yuzasi $A_s = \frac{M\gamma_n}{\eta h_0 R_s} = \frac{42000 * 0,95}{0,981 * 4 * 375 * 100} = 0,27 \text{ cm}^2$

Kesimga sim to'ri S-1 $\frac{3Bp - I - 200}{3Bp - I - 200} A_s = 0,36 \text{ cm}^2 > 0,27 \text{ cm}^2$ qabul qilamiz.



2–rasm. Zinapoya maydonchasi, a) umumiy ko‘rinish va maydonchani armaturlash; b) maydoncha plitasi hisobiy sxemasi; v) old qovurg‘a hisobiy sxemasi; g) devor tomondagi bo‘ylama qovurg‘a hisobiy sxemasi; d) kosourlar tayanadigan old qovurg‘a hisobiy sxemasi.

Maydoncha old qovurg‘asini hisoblash

Maydoncha old qovurg‘asiga quyidagi yuklar ta‘sir qiladi:

- 1) Tokcha yarim proletiga tushuvchi doimiy va vaqtinchalik tekis taqsimlangan yuklar, hamda xususiy og‘irlik $q = (1650 + 3600) * 1,35 / 2 + 1000 = 4550 \text{ H / m}$
- 2) Marsh tayanch reaksiyasidan tushuvchi tekis taqsimlangan yuk miqdorini topamiz $q_1 = Q / a = 17800 / 1,35 = 13089 \text{ H / m}$

Eguvchi moment qiymati (konsol qismida)

$$M_1 = q_1 \frac{10 + 7}{2} = 13089 * 8,5 = 111256,5 \text{ H} \cdot \text{cm} = 1112,6 \text{ H} \cdot \text{m}$$

Qovurg‘a oralig‘idagi eguvchi moment miqdori

$$M = \frac{(q + q_1)l_0^2}{8} = \frac{(4550 + 13089) * 3,2^2}{8} = 22570 \text{ H} \cdot \text{m}$$

$\gamma_n = 0,95$ qiymatda ko‘ndalang kuchning hisobiy qiymati

$$Q = \frac{(q + q_1)l\gamma_n}{2} = \frac{(4550 + 13089) * 3,2 * 0,95}{2} = 26802 \text{ H}$$

Old qovurg‘a hisobiy kesimi tokchasi siqilishga ishlaydigan tavr ko‘rinishida bo‘ladi.

Tokcha kengligi $b'_f = 6h'_f + b_r = 6 * 6 + 12 = 48 \text{ cm}$

Betaraf o‘q holatini tekshiramiz $x = h'_f$

$$M\gamma_n = 2257000 * 0,9 = 2,13 * 10^6 < R_B \gamma_{B2} b'_f h'_f (h_0 - 0,5h'_f) =$$

$$= 14,5 * 100 * 0,9 * 48 * 6 * (31,5 - 0,5 * 6) = 10,7 * 10^6 \text{ H} \cdot \text{cm}$$

shart bajarildi, demak betaraf o'q tokchadan o'tadi.

$$A_0 = \frac{M\gamma_n}{R_B\gamma_{B2}b_f'h_0^2} = \frac{2257000 * 0,95}{14,5 * 100 * 0,9 * 48 * 31,5^2} = 0,0345$$

Jadvaldan $A_0 = 0,0345$ dan $\xi = 0,0351$, $\eta = 0,9824$ qiymatlarni olamiz.

$$\text{Armatura yuzasi } A_s = \frac{M\gamma_n}{\eta h_0 R_s} = \frac{2257000 * 0,95}{0,9824 * 31,5 * 280 * 100} = 2,47 \text{ cm}^2$$

Kesimga konstruktiv nuqtai nazardan $2 \otimes 14 \text{ A-II}$, $A_s = 3,08 \text{ cm}^2 > 2,47 \text{ cm}^2$ armatura qabul qilamiz.

$$\text{Armaturlash foizi } \mu = \frac{A_s}{bh_0} 100 = \frac{3,08 * 100}{12 * 31,5} = 0,82\%$$

Old qovurg'ani ko'ndalang kuch ta'siriga hisoblash

Ko'ndalang kuch qiymati $Q = 26,8 \text{ kH}$

Qiya kesim proeksiyasi uzunligini hisoblaymiz.

$$C = \varphi_{B2}(1 + \varphi_f + \varphi_n)R_{Bt}bh_0^2 / Q_B = B_B / Q_B$$

bunda $\varphi_2 = 2$ og'ir betonlar uchun

$$\varphi_f = 0,75 \frac{(3h_f')h_f'}{bh_0} = 0,75 \frac{3 * 6 * 6}{12 * 31,5} = 0,214 < 0,5 \quad \varphi_n = 0$$

$$B_B = \varphi_{B2}(1 + \varphi_f + \varphi_n)R_{Bt}\gamma_{B2}bh_0^2 = 2 * (1 + 0,214) * 1,05 * 0,9 * 12 * 31,5^2(100) = 27,4 * 10^5 \text{ H / cm}$$

Hisobiy kesimda $Q_B = Q_{SW} = Q/2$ bo'lishi kerak, shuning uchun

$$C = B_B / (0,5Q_B) = 27,4 * 10^5 / (0,5 * 26801) = 204 > 2h_0 = 2 * 31,5 = 63 \text{ cm}$$

Proeksiya uzunligini $C = 63 \text{ cm}$ qabul qilamiz, u xolda

$Q_B = B_B / C = 27,4 * 10^5 / 63 = 43,4 * 10^3 \text{ H} = 43,4 \text{ kH} > 26,8 \text{ kH}$ demak kesimga ko'ndalang armatura konstruktiv ravishda qo'yiladi.

Konstruktiv nuqtai nazardan $\otimes 6 \text{ mm } A-I$ armaturadan $S = 15 \text{ cm}$ qadam bilan K-1 karkasga qo'yamiz.

Yig'ma marshning maydonchaga tayanadigan qismi S-2 sim to'r bilan armaturlanadi. $\otimes 6 \text{ mm } A-I$ sinfli sim to'rning ko'ndalang sterjenlari K-1 karkas xomutlariga biriktiriladi.

Maydoncha ikkinchi buylama qovurg'asini hisoblashda marshdan tushadigan yuk bo'lmaydi.

Iqtisodiyot qismi

Bitiruvchi:

Maslaxatchi:

Mas'ul raxbar:

Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi

Bitiruvchi:

Maslaxatchi:

Mas'ul raxbar:

MONTAJ ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Poydevorlar montaji.

Poydevorlar montaji binoning yer osti qismini tiklash davrida, aloxida uzluksiz oqimda amalga oshiriladi

Xandaq ostining belgilari nivelir yordamida tekshirilib, poydevorlar o'rni aniqlanadi va joyda qoziqlar yordamida belgilab qo'yiladi. Montaj qilishdan avval poydevorlarga reja belgisi chizib chiqiladi. So'ngra poydevorlarni kran yordamida ko'tarib loyixa joyiga o'rnatiladi. Bunda poydevorga chizilgan reja belgilari binoning taqsimlovchi o'qlariga mos tushishi kerak. Montaj qilinayotgan poydevorlarning rejadagi o'rni teodolit bilan, poydevorning balandlik belgisi nivelir bilan tekshirib boriladi. Stakansimon poydevorlar o'qlarining taqsimlovchi o'qlarga nisbatan chetlanishi ko'pi bilan ± 10 mm bo'lishi, metall konstrukstiyalar ostidagi anker boltli poydevorlarda esa ± 5 mm dan oshmasligi kerak.

Bu binolarda konstrukstiyalarni montaj qilish sifati karkasni yig'ishga bog'liq. Shuning uchun montaj vaqtida noaniqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ustunlar montaji.

Ustunlar gruppaviy yoki yakka kontuktorlik qamrov moslamalari yordamida montaj qilinadi. Birinchi qavat kolonnalari poydevordagi stakanlarga o'rnatiladi. Bunda kolonna kranga ilinadi, ko'tariladi va kolonnalardagi o'q chiziqlariga to'g'ri keltirib, joyiga o'rnatiladi. Konduktor va ko'chma domkratlar yordamida kolonna to'g'irlanadi va vaqtincha mahkamlanadi. So'ng kolonnalar chetiga beton korishmasi quyilib, kolonna qo'zg'almaydigan qo'yiladi. Ikkinchi qavat va keyingi yaruslardagi kolonnalar ham karkasning konstrukstiyasiga qarab, tirkaklar, tortiqlar yoki gruppaviy konduktorlar bilan mahkamlanadi. Ko'proq to'rt kolonga bag'ishlangan gruppaviy konduktor qo'llaniladi. Rigellar kolonnalarning tayanch yuzasiga tushirib, eni loyihaga mosligi undagi chiziqlar kolonnalardagi o'q chiziqlarni mosligi tekshiriladi va rigel kolonnalarning quyma detallarga elektr payvand usulida tutashtiriladi.

O'rnatilgan konstrukstiyalarning turg'unligi va barqarorligini ta'minlashmaksadida binoning er ustidagi qismi qavatma-qavat yoki yarusmayarus quriladi.

Montaj ishlarini boshlashdan ilgari quyidagi tadbirlar bajariladi: pastki qavat konstrukstiyalarini yig'ish nihoyasiga etkaziladi, konstrukstiyalar uzil-kesil maxkamlanadi; tirqishlarni berkitish uchun mayda toshli beton ishlatiladi;reja o'qlar ustunlarning kallaklariga yoki orayopmalarga ko'chiriladi, montaj gorizonti aniqlanadi va qurilgan qavat (yarus)ning ijro sxemasi chiziladi.

Navbatdagi qavat yoki yarusni montaj qilish inshootning fazoviy bikirligini yoki turg'unligini ta'minlaydigan elementlarni o'rnatishdan boshlanadi. Dastlab krandan eng uzoqdagi elementlar o'rnatiladi. Har bir yarus aloxida bloklarga bo'lib bir yoki ikki qavat balandligida montaj qilinadi. Xar bir blok to'rt dona ustun, xari va orayopma plitadan iborat bo'ladi. Konstrukstiyalarning tegishli joylari payvandlab ulangach va juftlashtirilgan joylardagi tirqishlar betonlab berkitilgach, qo'shni blokni yig'ishga kirishiladi.

Binoning turg'unligini oshirish uchun karkas qurayotgan vaqtda ko'tarib turuvchi devorlar ham qurilishi lozim. Devor qurish sinch qurish ishlaridan faqat bir qavat orqada qolishi mumkin.

Sinchning qurilgan qismi mustahkamligini ta'minlash uchun ustunlar orasiga vaqtincha montaj kashaklari o'rnatiladi. Konstrukstiyalarni guruhli montaj uskunalaridan foydalanib o'rnatish elementlarni vaqtincha mahkamlash ishlarini ularning vaziyatini

QUYMA BETON VA TEMIR-BETON ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Qolip urnatish ishlari

Qoliplar mustaxkam, germetik va ustvor, kuyma konstrukstiyaning anik ulchamlarini ta'minlaydigan,oson yigiladigan, echib olinadigan, engil, ichki sirti tekis bulishi zarur. Qolip va uning elementlari armatura buyumlarining urnatilishiga va beton korishmasining tushalishiga xalakit bermasligi lozim.

Beton korishmasining kolip ichki sirtiga yopishishini oldini olish maksadida uqitning sirtiga xar xil plenka xosil kiluvchi, suvni yoktirmaydigan

smolalar surtiladi. Bugungi kunda neft maxsulotlari chikindisidan keng foydalaniladi. Bunday smola, yoglar bulmasa, beton kuyilishidan 1 soat oldin yogoch koliplarga yaxshilab suv sepish tavsiya etiladi.

Lentasimon poydevorlar uchun kolip yigish kadami 3-4 m bulgan kush mayak shitlar urnatishdan boshlanadi. Shitlar vaktinchalik tirgak va tortkilar bilan maxkamlanadi. Mayak shitlar buyicha tortki sim tortiladi va u buyicha oralik shitlar urnatiladi. Tekshiruvdan sung ular doimiy maxkamlanadi.

Pogonali lentasimon poydevorlar uchun koliplar ikki texnologik sxema buyicha yigiladi. Birinchi sxema buyicha xar bir pogona uchun kolip yukorida keltirilgan tartibda aloxida-aloxida yigiladi. Bunda ikkinchi pogona uchun yigilgan qolip pastki pogona betoniga tayanadi, ya'ni ikkinchi pogona uchun kolip pastki pogona betonlangach va ma'lum mustaxkamlikka erishgachgina yigilishga boshlanadi. Ikkinchi sxema buyicha kolip poydevorning butun balandligi buyicha yigiladi. Bunda birinchi pogona uchun kolip oldingi tartibda yigilib, uning ustidan xar 3-4 m.ga kundalang tusik (t/b peremichkalar) lar urnatiladi va ularga uk chiziklar belgilanadi. Shular asosida shitlar urnatilib bir-biriga tortki simlar bilan totilib va bundan tashkari tirgaklar bilan kotiriladi.

Xari va tusinlar kolipi taglik va ikki yondagi shitlardan iborat. Tusin tagligi kalinligi 4-5 sm li taxtadan, yon shitlari 2-2,5 sm.li yupka taxtadan iborat buladi. Xari va tusinlar kolipi tagidan ustunlar bilan kutarib turiladi.

Armatura ishlari

Armatura elementlari kolip ichiga donabay, armatura karkasi va tur(setka) kurinishida urnatiladi.

Armaturalash ishlari ikki jarayon armatura elementlarini tayyorlash va yigishdan iborat. Demak, avval artamura sterjenlari, boglovchi elementlar ish chizma asosida kesib tayyorlanadi, keyin ular yigilib armatura karkasi yoki turi xosil kilinadi va joyiga urnatiladi (urnatilish joyida yigilishi xam mumkin).

Armatura elementlari zavod yoki stexlarda tayyorlansa ular avtomobillar, pristep yoki yarim pristeplarda tashib keltiriladi. Tashish paytida payvandlangan

choklar, boglangan joylar ostiga yogoch bruschalar taglik (kistirma) sifatida kuyiladi.

Armatura elementlari koliplar tekshirilib kabul kilingandan sung joyiga urnatiladi. Armatura elementlarini urnatishda ximoya katlamini ta'minlash juda muximdir. Ximoya katlami kalinligi 100 mm.gacha bulgan devor konstrukstiyalari va plitalar uchun -10mm, ularning kalinligi 150 mm balsa - 15 mm, tusin, ustun, xari (progon) uchun (armatura 20-32 mm) 25 mm.dan kam bulmasligi zarur.

Ximoya katlami kalinligi, armatura elementlarining ostki kismiga urnatilgan maxsus fiksatorlar yoki armatura ostiga kuyiladigan stement yoki beton balochkalar yordamida ta'minlanadi.

Armatura elementlari kulda kran yordamida kolip ichiga urnatiladi. Ustunlar uzunligi 4 m.gacha balsa armatura elementi kolip ichiga tepadan tushiriladi, aks xolda (4 m dan ohsa) ustun uchun yigilgan kolip-kuttining bir tomoni ochilib armatura karkasi kolipning yon tomonidan kiritiladi. Konstrukstiyalarning turi, armaturalanganlik darajasiga karab avval armatura karkasi yigilib, sung uning atrofiga kolip yigilishi xam mumkin.

Betonlashdan oldin kurilgan kolipning mustaxkamligi tekshiriladi. Kolip konstrukstiyasining loyixaga mosligi ya'ni balandligi va gorizontalligi nivellar yordamida, tugri chizikliligi reja ip tortish bilan, vertikalligi shovun tushirib kurish bilan, kundalang kesim ulchamlari metr yoki ruletka bilan tekshirib kuriladi.

Kolip ichidagi armatura shaklining loyixadagi konstrukstiyaga muvofikligi, ish armaturasi sterjenlari diametrlarining loyixada kursatilganidek bulishi, armatura sterjeni bilan kolip taxtasi orasida 1,5-2,5 sm li ximoya katlami koldirilganligi nazorat kili

nadi. Aniklangan kamchiliklar darxol bartaraf kilinadi.

Betonlash ishlari kuyidagi jarayonlardan iborat:

- beton korishmasini tayyorlash;

- beton korishmasini tashish;
- beton korishmasini kolipga joylash va katlamlarini zichlash;
- beton konstruktiviyasida choklar koldirish;
- kolipdagi betonni parvarish qilish;
- betondan kolipni kuchirib olish;
- betonda aniklangan kamchiliklarni yukotish;
- nokulay iklim sharoitida betonlash ishlarini olib borishda

bajariladigan kushimcha chora va tadbirlar.

Beton korishmasini tayyorlash. Beton korishmasi loyixada belgilab berilgan marka buyicha tayyorlanadi. Tayyorlangan beton korishmasi uni tashish va joyiga tushash uchun ma'lum texnik xossalarga ega bulishi kerak. Beton korishmasi katlamlarga bulinmasligi, ma'lum bir konsistenstiyaga ega bulishi zarur. Beton korishmasi konsistenstiyasi «konus chukishi»(OK) degan kattalik bilan xarakterlanadi.

Beton korishmasining konus chukishi $OK < 2$ sm bulsa- kattik beton, $OK = 2-4$ sm - kam xarakatlanuvchan beton, $OK = 4-5$ sm - xarakatlanuvchan beton, $OK > 15$ sm bulsa - suyuq beton korishmasi deb yuritiladi.

Beton korishmasi uzlukli va uzluksiz ish prinstipida ishlaydigan beton korgichlarda tayyorlanadi. Beton tayyorlaydigan tugunlar (uzel) kuchma va stasionar bulishi mumkin. Kuchma beton korgichlar bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga kuchirib yuriladi. Stastimonar beton tugunlari, zavodlari ishlab chikarish kuvvatiga karab 100 km radiusgacha xududni beton korishmasi bilan ta'minlaydi.

Beton korishmasining sifati uni tashkil etuvchi komponentlar sifati va ularning tarkibdagi mikdoriga boglik. Shuning uchun tuldiruvchilar sifati tajribaxona xodimlari tomonidan nazorat kilinishi zarur. Bundan tashkari dozatorlarning ishga yarokliligi tekshirib turilishi kerak.

Beton qorishmasini tashish

Qurilayotgan binoning xususiyatlariga va tashkiliy sharoitlarga boglik ravishda beton korishmasi avtosamosval, avtobetonovoz (avtobeton tashigich),

avtobetonkorgich (avtobetonosmesitel), beton-nasos, kisilgan xavo yordamida, beton yotkizgich (betonoukladchik), konveyer, kranlar yordamida tashilishi mumkin. Beton korishmasini tashish jarayonida uning tarkiban bir xilligi va xarakatchanligi uzgarmasligi zarur.

Beton korishmasi tashilayotganda atmosfera yogingarchiligi, muzlash, kurish, xattoki stement kuykasining tukilishidan saklanilishi lozim. Beton korishmasining tashilish masofasi uning xaroratiga, transport turiga, yulning xolatiga boglik. Beton korishmasi yomon yuldan uzok muddat tashilsa u katlamlarga bulinishi mumkin. Bunda yirik tuldargichlar pastki katlamga, mayda tuldargich va stement yukorigi katlamga kuchadi. Beton korishmasining asosiy kismi avtosamosvallarda tashiladi. Avtosamosvallarda beton korishmasi yarim kuruk xolatda tashiladi. Bu esa kulda bajariladigan ishlar miskolini oshiradi. Shuning uchun avtosamosvallarda beton korishmasi kam xarakatchan xolatda asfalt yullar buyicha 25-30 km, boshka yullardan 15-20 km masofagacha tashiladi xolos.

Tayyor beton korishmasini tashishda eng etuk transport - avtobetontashigich (avtobetonovoz) xisoblanadi. Transport agdaradigan kuzovga ega. Kuzovning beton korishmasini tukadigan teshigi tashiladigan beton korishmasi satxidan balandda turadi. Bu esa transportning xarakat yulida stement suv aralashmasining tukilishini oldini oladi. Kuzov agdarilganda uning teshigi pastda gorizontal xolatda buladi, bu esa kuzovda beton korishmasi koldiklarining saklanib kolmasligini ta'minlaydi.

Avtobetonkorgich (avtobetonosmesitel)larda kuruk beton va aloxida suv (boshka idishda) tashiladi. Kurilish ob'ektiga 10-15 minutlik yul kolganda betonkorgich yurgiziladi. Mashina kurilish ob'ektiga borganda kuzovda tayyor beton korishmasi buladi. Bunday transport turida beton korishmasi 70-90 km masofagacha tashilishi mumkin.

Beton korishmasi kurilishi maydoni ichida bir joydan joyga, tukilgan joydan kolipga kuchirilishi mumkin. Bu maksadlarda kran, konveyer, transporter lenta va beton nasosdan foydalaniladi.

Beton qorishmasini joyiga tushash

Kurilish maydonlarida asosiy xajm beton korishmasi (85%dan ortik) bad yalarda kran orkali uzatiladi. Badyalarni bushatish va beton korishmasi ni tekis taksimlash kulf yuritma (privodnoy zatvor) erdamida amalga oshiriladi. Juda yukori binolarni tiklashda badyalar kutargichlar (pod'emnik) yordamida xam kavatlarga kutarilishi mumkin.

Umuman olganda beton korishmasini tushash asosni tayerlash, beton korishmasini uzatish, kabul kilish, tarkatish va zichlash jarayonlaridan iborat. Ish boshlangunga kadam beton korishmasini uzatish, tarkatish va zichlash usullari tarkatish kalinligi yunalishi va muddati anik bulishi kerak.

Qolipga uzatilgan beton korishmasi bir xil kalinlikdagi gorizonta katlamlar buyicha bir yunalishda tarkatiladi. Gorizonta katlamlar kalinligi zichlash jixozlarining xarakteristikalariga boglik. Beton korishmasi ichki tebranish beruvchi titratgichlarda zichlanganda tushaladigan katlamning eng kam kalinligi titratgich ishchi organi uzunligidan 8-10 sm. kichik, beton katlamining eng katta kalinligi titratgich ishchi organi uzunligidan 1,25 marta katta bulishi mumkin. Yuza buyicha tebranish beruvchi titratgichlardan foydalanilganda beton korishmasi kalinligi yakka armaturalangan konstrukstiyalarda 250 mm, kalin (2 katlam) armaturalangan konstrukstiyalarda - 120 mm bulishi zarur. Beton korishmasini bir joydan ikkinchi joyga uloktirish (lopatkada kuchirish) ayrim xollardagina ruxsat etiladi.

Zichlanmagan xolatdagi beton korishmasining tarkibida kup xavo buladi. Kattik korishma tarkibida 40-45%, plastik korishmalar tarkibida 10-15% xavo buladi. Beton korishmasi zichlanganda u chikarib yuborilgan xavolar xisobiga utiradi, kirishadi va natijada ogirlashadi. Titratgich ta'sirida beton korishmasi zarralari majburiy tebranadi va erkinlashadi. Erkin zarralar ogirlik kuchi ta'sirida chukadi va kolipni egallaydi.

Titratgichlar, beton korishmasiga ta'sir kursatish usuliga karab kuyidagilarga bulinadi:

- ichki - beton korishmasi ichiga tushirilishi bilan ishchi organi korpusi orkali korishmaga tebranish beradi. Tebranish kuchidan deyarli tula foydalaniladi;

- tashki - koliplarga tashki tomondan boltlar eki boshka biriktiruvchi elementlar bilan mustaxkamlangan buladi;

- sirt buyicha ishlovchi - tushalغان beton yuzasi buyicha tebranish berib zichlaydi.

Qurilishda ichdan tebranish beruvchi titratgichlar keng ishlatiladi. Beton korishmasining zichlanib bulinganligi xakidagi xulosani uz vaktida chikarilishi juda muximdir. Titratgich bir joyda uzok tutib turilsa beton korishmasi katlamlarga bulinishi mumkin, aks xolda tula zichlanmay ichida xavo kolishi mumkin. Malakali betonchilar titratgichning tovushidan beton korishmalarining zichlangan eki zichlanmaganligini bilishadi. Titratgich beton korishmasi ichiga tushirilgach ovoz yukoladi va bir ozdan sung yana ovoz paydo buladi va uning kuvvati bir xil turadi. Shunda titratgichni beton tanasidan chikarib olish talab etiladi.

Bundan tashkari beton korishmasining etarli darajada zichlanganligini bildiruvchi kator belgilar mavjud. Bular: beton korishmasining chukmasligi, sirtda stement-suv aralashmasining chikishi, sirtda xavo pufakchalarining chikishini tuxtatishi va x.k.

Titratgich ishchi organining beton korishmasi ichiga ketma-ket tushirish joylari orasidagi masofa $1,5 R$ (R -titratgich ta'sir radiusi)ga teng bulishi kerak

Betonlash ishlarini olib borishda tanaffuslar bulishi mumkin. Bunda eski va toza tushalغان beton orasida tekislik (chok) xosil buladi. Buni betonlashdagi ishchi choklar deb atashadi. Bu choklar konstrukstiya mustaxkamligiga ta'sir etmaydigan joylarda tashkil etiladi.

Ustunlarni kurishda ishchi choklar poydevor tepa sirti satxida yoki xari, tusinlarning osti satxida bulishi mumkin.

Ish choki anik gorizontal yoki vertikal bulishi kerak. Tusinlar yoki plitalar betonlanganda choklar vertikal xolatda bulishi zarur.

Ustunlar betonlanganda choklar gorizontal xolatda bulishi kerak. Beton kotish davrida parvarish kilinishi lozim. Beton kotishining boshlangich davrida unga kilingan parvarish kuyidagilarni ta'minlashi zarur:

beton mustaxkamligining zarur sur'atlarda egallanishini ta'minlovchi xarorat namlik xolati;

xarorat - chukish deformastiyasining borishi va yoriklar xosil bulishiga yul kuymaslik;

kotayotgan betonni kutilmagan zarbalardan va boshka ta'sirlardan asrash;

Issik va kuruk iklim sharoiti, kish faslidagi sovukliklar betonning me'yoriy kotishi uchun nokulay iklim sharoiti bulib xisoblanadi.

Issik va kuruk iklim sharoitida toza tushalgan beton korishmasining suvsizlanishi va dastlabki plastik chukishi natijasida beton tanasida yoriklar xosil bulishining oldini olish zarur buladi. Shu maksadlarda beton sirtiga suv utkazmaydigan polietilen plenka yopiladi(kuruk parvarish). Beton ma'lum darajaga kotgach, uning ustiga shol-penka (meshkovina) tushash, yogoch chikindisi (apilka) sepish va ularni namlab turish tavsiya etiladi (namli parvarish).

Issik kunlarda beton korishmasi uz plastikligini yukotadi. Bu xollarda unga S / Q nisbatni uzgartirmay bir oz suv kushish lozim. Beton tarkibiga plastifikatorlarni kushib plastik beton korishmasi olish xam mumkin.

Kishda beton va temir-beton ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, bunda beton muzlaganiga kadar xisoblangan mustaxkamlikning 50%ga ega bulsin. Shunda gina bundan keyingi muzlash beton mustaxkamligiga ta'sir kilmaydi.

Umuman betonning kotishi uchun me'yoriy xisoblangan 18-22 S li xarorat 4 S gacha pasaysa uning kotish muddati ikki barobar chuziladi, xarorat 0 S dan pastga tushganda esa betonning kotishi tuxtaydi-u muzlab koladi. Beton muzalaganda uning tarkibidagi suv xam muzlab uz xajmini 9%ga oshiradi. Bu uz vaktida beton tanasida ichki kengayish kuchlanishlarini xosil kiladi. Beton erishgan mustaxkamlik bu kuchlanishlarga bardosh berolmasa, u titilib ketadi.

Kish vaktida betonlashni 2 asosiy guruxga bulish mumkin:

konstruksiyalar ichida betonni uz xolida, isitmasdan saklash va sun'iy ravishda isitib kotishini tezlashtirish. Betonni sun'iy usulda isitish usuli nafakat kish davrida betonlash ishlarini olib borishni ta'minlaydi, balki mustaxkamlikni egallash suratlarini xam oshiradi.

Betonni isitmasdan saklash usuliga «termos» usuli va uning xar kurinishlari, muzlashga karshi kushimchalarni kullash va beton korishmasini oldindan yukori xaroratgacha isitib koliplash kabi yondoshishlarni aytish mumkin.

Sun'iy isitish bilan betonlash usullari sifatida elektr toki energiyasi xisobiga isitish (elektroprogrev, elektroobogrev, greyumie opolubki), issik bug bilan isitish, issik xavo bilan isitish, infrakizil nurlar bilan isitish kabilarni aytish mumkin.

Yukorida keltirilgan kishki betonlash usullaridan biri kurilish tashkiloti imkoniyatlaridan, ob'ektdagi shart-sharoitdan kelib chikib tanlanadi.

Qolip betondan texnikaviy shartlarga muvofik ajratib olinadi. Beton etarli darajada kotgandan keyin kolip ajratib olinadi. Beton konstruksiyalarga yondosh kolip (yon tomon-yuk tushmaydigan kolip) beton xosil kilingan shaklni yukotmaydigan darajagacha kotganda (loyixaviy markasining 25% mustaxkamligini olganda) , uni kutarib turuvchi bulaklari esa beton 70% dan ortik mustaxkamlikka erishgach echib olinadi.

Beton va temir-beton ishlari sifatini nazorat kilish kuyidagilarda namoyon buladi:

- armatura, beton uchun materiallarning sifati, saklanish sharoitlari;
- beton koruvchi jixozlar, dozator-ulchash asboblarining sozligi;
- beton korishmasining tayyorlanish, tashish va tushash paytidagi sifati;
- betonni parvarish kilish usulining tugri tanlanganligi, kolipni echish muddatlarini nazorat kilish;

Bunday nazoratni olib borish uchun ishlab chikarish ustidan doimiy nazoratni tashkil etish lozim.

Beton sifati tekshirilganda uning xakikiy mustaxkamligi, muzlashga chidamliligi, suv utkazmaslik kursatgichi aniklanadi va tegishli xulosalar kilinadi.

GIShT-TOSh TERISH IShLARI TEXNOLOGIYASI

Kurilish korishmalari muzlashga chidamli, mustaxkam, plastik, tarkibida suvni ushlab tura oladigan bulishi kerak. Qorishmalar , tarkibidagi boglovchi moddalar soniga karab oddiy va murakkab bulishi mumkin. Qorishmalarga ularning kulay joylashuvchanlik, plastikligini ($\sigma=9-13$ sm) ta'minlash maksadida kushimchalar kushiladi . Korishma uz tarkibidagi suvni saklab kolishi uchun unga kul, ezilgan shlak kabi noorganik kushimchalar kushiladi.

Armatura setkalari terilgan devorning yuk kutarish kobiliyatini, mustaxkamligini, yaxlitligini, zilzilaga bardoshliligini oshirish maksadida gorizonta korishma katlami orasiga urnatiladi. Armaturani setkalar urniga aloxida sterjenlar kurinishida urnatish mumkin emas.

Gisht-tosh terish ishlarida ishlatiladigan asbob-uskunalarni shartli ravishda gisht terishda ishlatiladigan va kontrol-ulchash asboblari bulish mumkin.

Gisht terish jarayonidagi xar bir operastiya ma'lum asboblardan foydalanib bajariladi. Ulardan asosiylari kelma, korishma kurakchasi, tekislagich, bolga-tesha.

Kelma-ikki tomoni silliklangan yogoch dastali pulat kurakcha-gisht terayotganda korishmani tekis yoyish, vertikal choklarni korishma bilan tuldirish va chokdagi ortikcha korishmani sidirib tashlashga muljallangan.

Qorishma kurakchasi yordamida korishma devorga uzatiladi va yoyiladi, yashikdagi korishma aralashtiriladi. Tekislagich bilan choklarga ishlov beriladi, ya'ni ularga ma'lum shakl beriladi.

Bolga teshadan gisht teruvchi butun gishtni bulish va yunishda foydalanadi.

Terim sifatini tekshirish -ulchash asboblariga shovun, «shayton» gaz chup, guniya, reja ip kiradi.

Shovunlar devorlar, ustunlar, oralik devorlar va devor burchaklarining vertikaligini, ya'ni terimning tikligini tekshirish uchun ishlatiladi.

Qurilish «shayton»i terimning gorizontalligi va vertikaligini tekshirish uchun ishlatiladi. Uning uzunligi 300, 500 yoki 700 mm, korpusi alyumin kotishmadan iborat bulib, unga ikkita shisha naycha ampula biriktirilgan. Naycha katta radius buyicha egilgan va ichiga muzlamaydigan suyuklik tuldirlilib, ozgina xavo pufakchasi koldirilgan.

